

№ 3 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот

технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй.

Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Axmedov Jasurbek, Jabborova Gavharshod

QANQA ARXEOLOGIK YODGORLIGINI MUZEYLASHTIRISH MASALASI 9-14

Шухрат Эргашев

ФРАНЦИЯДА ИККИНЧИ РЕСПУБЛИКА ИНҚИРОЗИ ВА 1851 ЙИЛГИ ДАВЛАТ

ТЎНТАРИШИ 15-23

Касимова Шахноза Алишеровна

ПРИЕМЫ ЭФФЕКТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ В МУЗЕЙНОЙ ЭКСКУРСИИ 24-29

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Файзиева Ширин Шодмоновна

АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА МАҲСУЛОТ ЕТИШТИРУВЧИЛАР ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИКНИНГ
ИҚТИСОДИЁТДА TUTGAN ЎРНИ 30-35

Мусагалиев Ажунияз Жумагулович, Дустова Мухайё Худайбердиевна

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ БОРАСИДАГИ АЙРИМ
МАСАЛАЛАР 36-41

Murodova Nargiza Utirovna

TURIZM MARKETING FAOLIYATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING AHAMIYATI 42-47

Kuchkarov Baxrom Kuziyevich, O'rmonov Xasanboy Haydarovich

KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY TO'LOVGA LAYOQATSIZLIGI XAVFINI ANIQLASH 48-55

Temirova Feruza Sagdullayevna

MARKETINGNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYASI -
BRENDING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH 56-62

Sobirova Marhabo Haitovna

MEVA-SABZAVOT KOOPERATSIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH
YO'LLARI 63-67

Mamajonova Gulasal Oribjon qizi

KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI 68-77

Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYA RISKLARINI
BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH 78-87

Тўхтамишов Азиз Қаҳрамонович

КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ
МОҲИЯТИ, МАЗМУНИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ 88-101

Каржавова Хуршида Абдумаликовна

МАҲАЛЛА ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАР КўРСАТИШНИНГ
АСОСИЙ ЁЎНАЛИШЛАРИ 102-110

Soliyev Dilmurod Jamolovich

AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISH KORXONA FAROVONLIGINING
ASOSIDIR 111-119

Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH
MASALALARI 120-130

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Тўраев Шавкат Нишонович

ЖАМИЯТ МАФКУРАСИ ИЖТИМОЙ САФАРБАР ЭТИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ 131-137

Qodirov Davronbek Hoshimovich

TASAVVUF TA'LIMOTINING NAZARIYOTCHISI – ABULQOSIM QUSHAYRIY 138-143

Sharipov Dilshod Baxshilloyevich

TINCHLIKNING UNIVERSAL (DUNYOVIY) TARTIB BO'YICHA TAHLILI 144-148

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Гаппаров Алибек Қаршибоевич

ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЛЕКСИКАНИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК АСПЕКТИ 149-155

Fayzieva Zuxra, Sharipova Yoqut Quدراتillayevna

APPLICATION OF GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE TO THE BLIND
AND VISUALLY IMPAIRED 156-161

Ахмедшина Лилия Рафаэлевна

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ «МУЖ « И «ЖЕНА»
В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ 162-166

Kholmuminova Makhliyo

DIFFERENCE BETWEEN MEANINGS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES 167-171

Shirinova Yekaterina

NUTQIY TAFAKKURNING PSIXOLINGVISTIK MUAMMOLARI 172-178

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Қутлымуратов Фарҳад Қалбаевич

ЮРИДИК ШАХСНИ ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШДА СОЛИДАР

ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 179-185

Kasimov Nodirjon Sodikjonovich

QASDDAN O'DIRISH JINOYATINING TUSHUNCHASI, TAVSIFI VA JINOIY HUQUQIY

XUSUSIYATLARI 186-196

Урманбаева Ферузахон Саттаровна

ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИНГ ЗАРУРИЯТИ ВА МОҲИЯТИ 197-203

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Tursunaliyev Ilhomjon Axmedovich

“HAYOT DAVOMIDA TA'LIM” – JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINI UZLUKSIZ

KASBIY RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMI SIFATIDA (NAZARIY JIHATLAR

TAHLILI) 204-210

Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich

BO'LAJAK REJISSORLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA

TRENING MASHQLARINING AMALIY AHAMIYATI 211-217

Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA QAT'IYATLILIK SIFATINI JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA

TARBIYALASH 218-223

Бабаходжаева Наргиза Мухитдиновна

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ

ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ 224-229

Mengliqulov Xayrulla Aliqulovich

HARAKATLI O'YINLAR ORQALI 14-15 YOSHLI SUZUVCHLARNING JISMONIY SIFATLARINI

RIVOJLANTIRISH 230-236

Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi

ADVANCED PEDAGOGICAL EXPERIENCES IN ORGANIZING AND DEVELOPING THE

EDUCATIONAL PROCESS ON THE BASE OF DIGITAL TECHNOLOGIES 237-244

Yusupov Dilmurod Abdurashidovich

YADRO FIZIKASI BO'LIMLARINI O'QITISHDA INNOVATSION KOMPYUTER

TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH 245-254

Ergashev Omonboy Turgunbayevich

TALABALARNING BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY ZARURATI VA

PEDAGOGIK ASOSLARI 255-260

Ruzmetova Novval Vahabdjano

THE ROLE OF FOLK TRADITIONS IN FORMING LEGAL CULTURE OF STUDENTS OF LAW
SCHOOLS 261-269

Raxmatov Otabek Urinbosarovich

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA MILLIY SPORT TURLARI ASOSIDA AMALIY
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI 270-274

Makhmudov Furqat Djumaboyevich

YORUG'LIK KVANT NAZARIYASINING VUJUDGA KELISHI. YORUG'LIK KVANTI MAVZUSINI
O'QITISH USULLARI 275-281

Бабахова Гулзиба Зиятбаевна

К ВОПРОСУ МЕТОДИКИ ИЗУЧЕНИЯ ТЕОРИИ АТОМОВ ВОДОРОДА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ
КУРСА КВАНТОВАЯ МЕХАНИКА 282-289

Dexkanov Sherzod Abdumutalibovich

KAFEDRALARARO BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI TAYYORLASH – SIFATLI TA'LIMNI
TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA 290-296

Ҳакимова Муқаддас Ҳасановна

КОМПЕТЕНТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ
ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ИЖОДКОРЛИГИНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ..... 297-301



Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари. -2023. -№ 3 (3).
ISSN: 2181-1342 (Online)
<https://scienceproblems.uz>

13.00.00 – Педагогика фанлари

Tursunaliyev Ilhomjon Axmedovich
professor, Toshkent davlat pedagogika
universiteti tadqiqotchisi

**“HAYOT DAVOMIDA TA’LIM” – JISMONIY TARBIYA VA SPORT
MUTAXASSISLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
MEKANIZMI SIFATIDA (NAZARIY JIHATLAR TAHLILI)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning pedagogik mexanizmlaridan biri sifatida “Lifelong learning” tamoyilini jismoniy tarbiya va sport bo’yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida qo’llash imkoniyatlari mohiyati bayon etilgan.

Kalit so’zlar: jismoniy tarbiya, sport, mutaxassis, uzluksiz kasbiy rivojlantirish, pedagogik mexanizm, “Lifelong learning” tamoyili, malaka oshirish.

Турсуналиев Илхомжон Ахмедович
профессор, научный сотрудник Ташкентского
государственного педагогического университета

**«ОБУЧЕНИЕ НА ПРОТЯЖЕНИИ ВСЕЙ ЖИЗНИ» КАК ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
МЕХАНИЗМ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ СПЕЦИАЛИСТОВ
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА (АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ)**

Аннотация. В данной статье описывается возможность применения принципа «Обучение на протяжении всей жизни» как одного из педагогических механизмов непрерывного профессионального развития в системе переподготовки и повышения квалификации специалистов физической культуры и спорта.

Ключевые слова: физическое воспитание, спорт, специалист, непрерывное профессиональное развитие, педагогический механизм, принцип «Обучение на протяжении всей жизни», повышения квалификации.

Tursunaliyev Ilhomjon Akhmedovich
Professor, Researcher at the Tashkent State
Pedagogical University.

**“LIFELONG LEARNING” AS A PEDAGOGICAL MECHANISM FOR CONTINUOUS
PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF SPECIALISTS IN PHYSICAL CULTURE AND SPORTS
(ANALYSIS OF THEORETICAL ASPECTS)**

Abstract. This article describes the possibility of applying the principle of “Lifelong learning” as one of the pedagogical mechanisms of continuous professional development in the system of retraining and advanced training of specialists in physical culture and sports.

Key words: physical education, sports, specialist, continuous professional development, pedagogical mechanism, the principle of “Lifelong learning”, professional development.



<https://doi.org/10.47390/1342V3I3Y2023N27>

Kirish. O‘zbekistonda “malaka oshirish” tushunchasi mavjud ta’lim tizimi ko‘rinishini ifodalovchi so‘z sifatida qo‘llanilib kelinsa, xalqaro tajribada bu tushuncha “professional development”, ya’ni “kasbiy rivojlanish” ma’nosida ishlatiladi. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari uzluksiz kasbiy rivojlantirish, sport sohasida zamonaviy kadrlar salmog‘ini oshirish borasida tizimli islohotlar olib borilmoqda. Bu esa o‘z navbatida tizim oldida turgan strategik vazifalarning bajarilishida yuqori malakali jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda hamda ularning kompetensiyasini uzluksiz ravishda “hayot davomida ta’lim” tamoyili asosida oshirib borishni taqozo qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida “kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta’minlash, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladigan zarur hajmini egallashini ta’minlash” – jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni malakasini oshirishning maqsadi va asosiy vazifasi sifatida belgilab qo‘yilgan [1].

Hozirda Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining asosiy vazifalari sifatida “jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni kasbiy, ma’naviy-axloqiy saviyasini oshirish, sport ta’lim tizimini ilmiy-metodik ta’minlash, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish; o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga, xususan, sport ta’lim muassasalari amaliyotiga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o‘qitishning samarali shakllari va usullarini joriy etish” belgilangan. Bu o‘z navbatida soha mutaxassislari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ustuvor yo‘nalishlarda, jumladan “hayot davomida ta’lim” orqali shakllantirish yo‘lga qo‘yilgan XXI asr kompetensiyalari mohiyatini xalqaro tajribani chuqur va tanqidiy tahlil etish orqali o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Wikipedia ma’lumotlariga ko‘ra, “Lifelong learning – hayot davomida ta’lim olish” konsepsiyasining nazariy-metodologik asoslari va bazaviy konseptlari shakllanishi XX asrning 90-yillariga to‘g‘ri keladi. Bunda Robin Usher, Peter Sutton (1994) [2], Michael Hatton (1997) [3], Richard Edwards (2000) [4; 3-11] kabi olimlarning tadqiqotlarini alohida e’tirof etish mumkin.

Keng qamrovli nazariy tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, “Lifelong learning (LLL)” paradigmasining rivojlanishida 2000 yilda Portugaliyaning Lissabon shahrida bo‘lib o‘tgan Yevropa sammiti juda muhim ahamiyat kasb etadi. Sammit ishtirokchilari, o‘z chiqishlarida jahondagi 189 ta mamlakat yetakchilari tomonidan 2000-yilda qabul qilingan “Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari (MRM)” da “boshariyat “bilimlar davriga” kirganini e’tirof etishib, bilimga asoslangan iqtisodiyotga va jamiyatga muvaffaqiyatli o‘tishning asosiy sharti – bu “Lifelong learning paradigmasi bilan korrelyatsiyadadir” – deya baholashadi. Sammit so‘nggida qabul qilingan Memorandumda hayot davomida ta’lim – bu “... bilim, ko‘nikma va kasbiy malakani rivojlantirish maqsadida doimiy ravishda amalga oshiriladigan keng qamrovli o‘quv faoliyati” deya xulosa qilinadi. Bunda e’tirof etilgan “paradigma” bilimlar jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy

transformatsiyasi sifatida yuzaga chiqishida MRM talablariga moslashishi shartligi ta'kidlanadi [5].

Barqaror rivojlanish maqsadlarining postulatlariga muvofiq 4-sonli muhim maqsadi "Barchani qamrab oluvchi va adolatli bo'lgan sifatli ta'limni ta'minlash va hayot davomida o'qish imkoniyatlarini rag'batlantirish" 2030-yilga qadar "kattalarga ta'lim beruvchi malakali o'qituvchilar sonini, shu jumladan rivojlanayotgan mamlakatlarda kattalarga ta'lim beruvchi o'qituvchilarni o'qitish bo'yicha xalqaro hamkorlik o'rnatish yordamida sezilarli darajada oshirish" orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Tanlangan yo'nalishda izlanishlar olib borishgan qator olimlarning t'kidlashlaricha, "uzluksiz kasbiy rivojlantirish ta'limining asoslari, XX asrning boshlarida shakllantirilgan". Masalan, M.Axmedov (2021) izlanishlarida qayd etilishicha, "AQShda 1926-yil E.Lindermanning "Kattalar uchun ta'limning ahamiyati" asarida, o'quv xonalari va dasturlari o'rniga katta yoshdagilarning ehtiyojlarini inobatga olishni ta'kidlangan. Asarda "Ta'lim bu hayot va butun hayot o'rganishdan iborat, shuning uchun ta'lim olishning chegarasi yo'q" shiori ilgari surilgan. Shuningdek, Buyuk Britaniyada 1929-yil nashr qilingan V.Yaxleyning "Hayot davomida ta'lim" kitobida esa kattalar ta'limi va uzluksiz kasbiy ta'lim olish masalalari atroflicha yoritib berilgan [6].

Internet nashrlarda keltirilishicha, "hayot davomida ta'lim" deganda, biz, o'rganish aslida nima ekanligi, jumladan, u qaerda, qachon va qanday sodir bo'lishi haqida kengroq fikr yuritishimiz zarurligini anglashimiz lozim. Bunda quyidagi muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratish kerak:

- ta'lim ma'lum bir yosh yoki rasmiy ta'lim muhiti, masalan, maktab bilan chegaralanmaydi;

- o'rganish manzili "agnostik"dir, ya'ni u hamma joyda sodir bo'lishi mumkin;

- va nihoyat, agar bizning o'rganishimiz maqsadga muvofiq sanalsa, hayotimiz davomida qiladigan har bir faoliyatimizdan o'rganish imkoniyati mavjud [7].

M.K. Xoliqova (2021) izlanishlari asosida, uzluksiz ta'lim sohasi (jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasi) rivojiga doir quyidagi takliflarni ilgari suradi:

- hayot davomida ta'lim paradigmasi aspektida andragogika – kattalar ta'limini 2030 yilgacha rivojlantirishning milliy doktrinasini qabul qilish;

- "Kattalar ta'limi to'g'risida"gi qonunni qabul qilish;

- XXI asrga xos global tendensiyalar hamda sohaga oid farsayt-tahlillar kontekstida networking, kollaboratsiya, madaniyatlararo muloqot, yetakchilik, konfliktmenejment, tanqidiy tafakkur, gender senzitivlik, metadissiplinarizm kabi universal kompetensiyalarni umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim, kattalar ta'limi o'quv dasturlariga faol implementatsiya qilish;

- "Lifelong learning" asosida uzluksiz ta'limni keng va har tomonlama amalga oshirilishini ta'minlash uchun qonunchilik bazasi va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- o'quv-didaktik va texnologik resurslarga ega bo'lgan Lifelong learning o'quv markazlarini tashkil etish;

- "Lifelong learning" dasturlari doirasida bilim va kompetensiyalarning milliy malaka doirasiga muvofiq tan olinishi, tasdiqlanishi va akkreditatsiyasini takomillashtirish, transparentlikni ta'minlash;

- global fuqarolik madaniyatini targ'ib qilish, oilalarni, jamoalarni, migrantlarni, inklyuziv guruhlarini ta'lim jarayoniga jalb qilish va diskriminatsiyaning barcha shakllarini

bartaraf etish; gender tengligi va inklyuziv ta'limni rivojlantirish;

- ta'limning xususiyatini mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirish, fuqarolarning ishga joylashish bo'yicha huquq va imkoniyatlarini kengaytirish;
- fuqarolik jamiyati va ijtimoiy sheriklik sub'ektlari bilan faol kollaboratsiya;
- "Lifelong learning" ta'lim paradigmasi doirasida forsayt-tadqiqotlarni amalga oshirish" [8; 24].

Pedagogik tadqiqotlarda qayd etilishicha (masalan, W.Hutmacher, 1997) [9; 73], Yevropa Kengashi tomonidan "shaxs" yoki "mutaxassis" kompetensiyalarining quyidagi tizimi taklif etilgan:

- o'rganish (learning) – tajribani hisobga olish; turli bilimlarni bir-biriga bog'lash va tartibga solish; o'z o'quv jarayonini tashkil qilish; muammolarni hal qila olish; mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;

- izlash (searching) – turli ma'lumotlar manbalariga murojaat qilish; atrofdagilar bilan maslahatlashish; mutaxassis bilan maslahatlashish; ma'lumot olish; hujjatlar bilan ishlash va uni saqlay olish;

- fikrlash (thinking) – o'tmish va hozirgi voqealar o'rtasidagi munosabatni topish; jamiyat taraqqiyotining u yoki bu jihatlariga tanqidiy nuqtai nazardan qarash; noaniqlik va murakkablikka dosh bera olish; munozarada o'zini tutish va o'z qarashlarini shakllantirish; ta'lim va kasbiy vaziyatlarning siyosiy va iqtisodiy kontekstlarining ahamiyatini idrok etish; salomatlik, iste'mol va atrof-muhit bilan bog'liq ijtimoiy an'analarni baholash; san'at yoki adabiyot asarini qadrlay olish;

- muloqot (communicating) – bir nechta tillarni tushunish va gapirish; bir nechta tillarda o'qish va yozish qobiliyati; omma oldida gapira olish; o'z nuqtai nazarini himoya qilish va bahslasha olish; boshqa odamlarning fikrlarini tinglash va hisobga olish qobiliyati; o'z fikrini yozma ravishda ifoda eta olish; grafiklar, diagrammalar va ma'lumotlar jadvalarini tahlil qilish;

- hamkorlik (co-operating) – hamkorlik qilish va jamoada ishlash qobiliyati; qarorlar qabul qilish; fikrlar farqi yoki nizolarni boshqarish; muzokara yurita olish; aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash imkoniyati;

- ishlarni bajarish (getting things done) – loyihani bajarishga kirishish; ishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olish; guruh yoki jamoaga qo'shilib, uning rivojiga o'z hissasini qo'shish; birdamlik yoki jipslikni namoyon etish; o'z ishini tashkil eta olish; matematik va modellashtirish vositalarini o'zlashtirish;

- moslashish (adapting oneself) – yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish; o'zgarishlarga nisbatan tezkor moslashuvchanlikni namoyish qilish; qiyinchiliklar oldida matonat ko'rsatish; yangi yechimlarni ishlab chiqishga qodir bo'lish) [9; 52-54].

A.Cropley, C.Knapper (2000)larning fikricha, "hayot davomida ta'limda o'z-o'ziga ishonish juda muhimdir. Hayot davomida o'qiydiganlar muntazam ravishda:

- o'z ta'limini rejalashtirish (plan their own learning);
- o'z bilimlarini baholab borish (evaluate their own learning);
- faol bo'lish (are active);
- rasmiy va norasmiy muhitda o'rganishga tayyor turish (are open to learning in both formal and informal environments);
- tegishli vaziyatlarda turli fan sohalaridagi bilimlarini birlashtira olish (integrate

knowledge from different subject fields in appropriate situations);

- muammolar yoki turli vaziyatlar uchun har xil o'rganish strategiyalaridan foydalanish (use different learning strategies for problems or different situations) kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak" [10].

XXI asr kompetensiyalarining nazariy tahlilini yuritishda ta'lim-tarbiya jarayoni yuqori sur'atlarda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yondashuvini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, XXI asrning universal kompetensiyalarini aniqlash va baholashda Kanadalik olimlar tomonidan 2014-yilda yuqoridagi o'xshash, lekin tamomila yangi yondashuvni qo'llana boshlandi. Yondashuvga ko'ra, tanlangan kompetensiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, sanoat iqtisodiyotidan "bilimlar iqtisodiyotiga" o'tish zarurati bilan izohlanadi. Turbulentlik va (yoki) noaniqlik sharoitlar(i)da muvaffaqiyat qozonish uchun kompetensiyalarni rivojlantirish quyidagi bir necha omillarga bog'liq sanaladi. O'rganishlarimizga ko'ra, XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirishning "Kanada modeli" quyidagi 6 ta kompetensiyalar guruhini o'z ichiga qamrab oladi:

- xarakter tarbiyasi (character education) yoki o'zgaruvchan va noaniq sharoitlarda konstruktiv harakat qilish qobiliyati sifatida "xarakter tarbiyasi", qat'iyatlilik, moslashuvchanlik, shaxsiy rivojlanish qadriyatlar;

- fuqarolik savodxonligi kompetensiyasi (citizenship education);

- muloqot kompetensiyasi (communication);

- tanqidiy fikrlash va muammolarni yechish ko'nikmalari (critical thinking & problem solving);

- hamkorlik (collaboration);

- ijodkorlik (creativity) [10; 5].

Umumiy o'rta (tayanch) ta'lim bo'yicha yangi majburiy o'quv dasturini ishlab chiqishda finlar 8 ta asosiy kompetensiyani belgilab beruvchi "Tayanch kompetentlikni belgilovchi Yevropa ramkasi"ga tayanishgan. Shunga ko'ra, Finlyandiyaning milliy ta'lim standartlarida 7 ta universal kompetensiyalar o'z aksini topgan:

- tafakkur, o'qishni o'rganish (T 1);

- madaniy kompetensiyalar, hamkorlik, muloqot (T 2);

- o'zi haqida g'amxo'rlik qilish (T 3);

- multisavodxonlik (T 4);

- IT-savodxonlik (T 5);

- karerani rivojlantirish va tadbirkorlik (T 6);

- barqaror kelajakni barpo etishda ishtirok etish (T 7) [10; 9].

AQShdagi Garvard universitetining huquq maktabi "Etakchilik va muzokaralar (Leadership and Negotiation)" dasturini taklif qiladi. Dastur, xususan, quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga mo'ljallangan:

- yetakchilik ko'nikmalari;

- muzokara olib borish texnologiyalarini o'zlashtirish;

- muzokaralarda vositachilik;

- mediativ texnologiyalar;

- konflikt-menejment (nizolarni boshqarish) [11].

2012-2015-yillarda Koreya Respublikasida olib borilgan ta'lim islohotlari quyidagi 6 ta asosiy "XXI asr kompetensiyalari"ni amalga oshirishga qaratilgan:

- o'z-o'zini boshqarish (A);
- axborot va bilim bilan ishlash (B);
- ijodiy tafakkur (C);
- nafosat va hissiylik (D);
- muloqot (E);
- fuqarolik savodxonligi (F) [10; 13].

2016-yilda Xitoyda o'tkazilgan ta'lim islohotlari asosida quyidagi "umumbashariy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun fan bilimlaridan (tayanch) tortib dunyoqarash va xarakterni (muloqot) shakllantiruvchi asosiy elementlarni o'z ichiga olgan umumiy ta'lim konsepsiyasi:

- (hozirgi) an'anaviy fan bilimlaridan (A) – (kelajakdagi) dunyoqarash va xarakter (C) sari;
- (hozirgi) real muammolarni hal qilish ko'nikmasidan (B) – (kelajakdagi) universal kompetensiyalar (D) sari" tizimi ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan [10; 11].

Bizningcha yuqorida keltirilgan takliflarning aksariyati jismoniy tarbiya va sport sohasida amaliyotga tatbiq etilgan. Bugungi kunda "Lifelong learning" tamoyili jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayoniga pedagogik mexanizm sifatida qo'llanilmoqda. Sababi 2015-2022-yillar oralig'ida olib borgan keng qamrovli tadqiqotlarimiz hamda soha rivojiga oid takliflarimiz asosida hozirda O'zbekistonda sohalar ichida mukammal sanalgan tizim shakllandi.

Bunda "Lifelong learning" tamoyili asosida Respublikamizda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya instruktorlari, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim muassasalari (shu jumladan, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari)ning jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari, sport maktablarining rahbar kadrlari, instruktor-metodistlari, maxsus fan o'qituvchilari, trenerlari, sport psixologlari, maxsus xizmat xodimlari hamda sport tashkilotlarining jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoni yaxlit tizim sifatida shakllantirildi.

Xulosa va takliflar. Demak yuqorida sanab o'tilgan davlatlar tajribasi, XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishda qo'llanilayotgan global tendensiyalar, shuningdek, namoyonda shaxslar va reytingi baland tashkilotlarning amaldagi mavjud dasturlari hamda majburiyatlari jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan "o'quv dasturlari"ni ishlab chiqishda fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqiladigan o'quv dasturlari va shakllantirilgan yaxlit malaka oshirish tizimi, bizga, sohani tubdan professionallashtirish yo'li orqali "kattalar ta'limi sifati"ni oshirish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar / Literatura / References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 355-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/6093267#6094823>
2. Sutton P. (1994). Lifelong and continuing education // Husen T., Postlethwaite T. (eds.) The international encyclopedia of education. Vol. 6. Oxford: Elsevier Science Ltd.
3. Hatton M. (1997). A pure theory of lifelong learning // Hatton M. (ed.) Lifelong learning:

- policies, practices and programs. Toronto: APEC.
4. Edwards R. (2000). Lifelong learning // Field J., Leicester M. (eds.) Lifelong learning: education across the lifespan. London: Routledge, Pp. 3–11.
 5. European communities: a memorandum on lifelong learning, 2000 / <https://uil.unesco.org/document/european-communities-memorandum-lifelong-learningissued-2000>.
 6. Ахмедов М. (2021). Узлуксиз касбий ривожлантиришнинг назарий асослари (электрон ресурс) / <https://oliymahad.uz/21527>.
 7. <https://www.learnlife.com/our-approach/learning-terminologies/lifelong-learning>.
 8. Холиқова М.К. (2021). “Lifelong Learning” парадигмаси контекстида XXI аср компетенцияларининг дунё таълим дастурларига имплементацияси (контент-таҳлил). Замонавий таълим / Современное образование 2021, 12 (109), 18-25.
 9. Hutmacher, Walo (1996). Key competencies for Europe // General Report of the Symposium. Berne, Switzerland, 27-30 March, 73 p.
 10. Cropley, A., & Knapper, C. (2000). Lifelong Learning in Higher Education (1st ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780203969281>
 11. Компетенции 21 века в национальных стандартах школьного образования / Аналитический обзор в рамках проекта подготовки международного доклада «Ключевые компетенции и новая грамотность: от деклараций к реальности» Сентябрь 2017 (электронный ресурс) // <https://vbudushee.ru/upload/iblock/f30/f30f7b26a9c431f523d437d5d85857b1.pdf>
 12. <https://pll.harvard.edu/course/negotiation-and-leadership-1?delta=0>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).